



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA DISLEKSIYA SABABLARI VA O'QISH QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISH BO'YICHA LOGOPEDIK-KORREKSION ISHLAR

Raxmatdjanova Nargiza Numanovna

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti 1-kurs magistr

Raxmatdjanova@mail.ru

Annotatsiya Disleksiya – bu o'qish va yozish qobiliyatlariga ta'sir qiluvchi nevrologik holat bo'lib, u o'quvchilarda harflarni, tovushlarni to'g'ri ajratish va o'qilgan matnni tushinishda qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Disleksiya, ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarida keng tarqalgan bo'lib, ular uchun o'qish va yozish muammolari akademik muvaffaqiyatga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ushbu maqola boshlang'ich sinf o'quvchilarida disleksiya sabablari, disleksik o'quvchilarning o'qish qobiliyatlarini shakllantirish bo'yicha logopedik-korreksiya ishlari va metodikalarini tahlil qiladi. Maqolada disleksiyaning o'quvchilarning o'zlashtirishiga ta'siri, disleksiya bilan kurashish uchun logopedik yordamning ahamiyati, samarali metodlar haqida so'z boradi. O'qish, yozish va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirishda logopedik-korreksiya ishlari muhim vosita bo'lib, o'quvchilarning akademik muvaffaqiyatlarini oshirishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: Disleksiya, Boshlang'ich sinf, O'qish kompetensiyasini shakllantirish, Logopedik korreksion ishlar, O'qish metodikasi, Vizual va audial yondashuvlar, Fonetika

Аннотация Дислексия — это неврологическое расстройство, которое влияет на способности к чтению и письму, вызывая трудности в правильном различении букв, звуков и понимании прочитанного текста. Дислексия особенно распространена среди учащихся начальных классов, для которых проблемы с чтением и письмом могут негативно сказаться на академических успехах. В статье анализируются причины дислексии у младших школьников, логопедико-коррекционная работа и методики формирования их читательских навыков. Рассматривается влияние дислексии на усвоение материала учащимися, значимость логопедической помощи в преодолении дислексии и эффективные методы работы. Логопедико-коррекционная работа является важным инструментом в развитии навыков чтения, письма и анализа, что способствует повышению академической успешности учеников.

Ключевые слова: Дислексия, Начальная школа, Формирование читательской компетенции, Логопедико-коррекционная работа, Методика чтения, Визуальные и аудиальные подходы, Фонетика.

Abstract Dyslexia is a neurological condition that affects reading and writing abilities, causing difficulties in correctly distinguishing letters, sounds, and understanding the meaning of the text. Dyslexia is particularly common among elementary school students, and reading and writing challenges can negatively impact their academic success. This article analyzes the causes of dyslexia in elementary school students, as well as the logopedic-correctional work and methods for developing their reading skills. The article discusses the impact of dyslexia on students' learning, the importance of logopedic support in combating dyslexia, and effective methods for intervention. Logopedic-correctional work is an important tool for developing reading, writing, and analytical skills, helping to improve students' academic performance.

Keywords: Dyslexia, Elementary school, Development of reading competence, Logopedic correctional work, Reading methodology, Visual and auditory approaches, Phonetics.

KIRISH. Disleksiya bu - umumiy bilish jarayonlari saqlangan holda, aynan o‘qish va yozish ko‘nikmalarini egallash qobiliyatining buzilishi.

Disleksiya — kelib chiqishi nevrologik tabiatga ega bo‘lgan o‘ziga xos o‘qish jarayonidagi qiyinchiliklardir. Disleksiyada so‘zlarni to‘g‘ri tanib olishda qiyinchilikka uchrash, o‘qish va yozishdagi kamchiliklar bilan tavsiflanadi. O‘qish ko‘nikmasini muvaffaqiyatli o‘zlashtirish bolalarning kognitiv faoliyatining rivojlanish darajasining bir mezonidir. O‘qishga o‘rgatishda yuzaga keladigan qiyinchiliklar, muayyan psixik jarayonlarning (e’tibor, xotira, fikrlash, nutq) rivojlanishida muammolar mavjudligini ko‘rsatishi mumkin. O‘qish ko‘nikmasining shakllanmaganligi, bolalarda fikrlash jarayonlari va xotiraning shakllanish jarayonini buzilishiga olib keladi. Ushbu turdagi buzilishlar ikkilamchi oqibatlar sifatida o‘qib tushunish bilan bog‘liq muammolar yuzaga keladi, o‘z navbatida, yomon o‘qish so‘z boyligining o‘sishiga, bu esa umumiy holatda ta’lim olishga to‘sqinlik qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Disleksiya o‘qish buzilishlarini o‘rgangan olimlar: T. V. Akhutina, M. V. Ermolayeva, A. N. Kornev, R. I. Lalaeva, R. E. Levina, I. N. Sadovnikova, R. A. Tkacheva, N. I. Zhinkin, S. S. Mukhina, M. E. Khvatsev, T. A. Fotekova, M. N. Rusetskaya. Ular o‘qish ko‘nikmasini shakllantirishning asosiy bosqichlari, uning struktura elementlari, o‘qish nutqi mexanizmlari va o‘qishning boshqa psixik jarayonlar bilan aloqasi va ularning rivojlanishiga asoslangan tadqiqotlarni olib borganlar.

Disleksiyaning kelib chiqishi quyidagi sabablar bilan bog‘liq:

- Og‘zaki nutqning tizimli buzilishlari, bosh miyaning organik zararlanishlari natijasi;
- Funksional ixtisoslashgan miya yarim sharlarining ish faoliyatidagi kamchiliklar bilan bog‘liq;
- Ensefalopatik buzilishlar, prenatal, natal va postnatal davrlarda zararli ta’sirlarning natijasi;
- Ijtimoiy va atrof-muhitning salbiy omillari ta’siri.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Disleksik bolalarda atrof-muhitda mo‘ljall olish, shakl va o‘lchamni aniqlashda qiyinchiliklar kuzatiladi. Disleksikbolalar nutqini noto‘g‘ri tashkil etadilar, murakkab gaplardan qochadilar, qisqa gaplar bilan cheklanadilar, ularning bog‘langan nutqidagi buzilishlar ko‘p uchraydi, bularning barchasi bolalarda o‘qish kompetensiyasining shakllanmasligiga olib keladi. O‘quvchilar disleksiya bilan bog‘liq muammolarni hal qilishda maxsus yordamga muhtojdirlar.

Disleksiya alomatlari quyidagilardan iborat bo‘lishi mumkin:

- Harflarni yoki tovushlarni aralashtirish
- So‘zlarni yoki harflarni noto‘g‘ri o‘qish
- O‘qilgan matnni tushunishdagi qiyinchiliklar
- Talaffuzdagi muammolar
- Yozishdagi qiyinchiliklar

Bu alomatlar har bir o‘quvchida shaxs xususiyatlaridan kelib chiqqan holda turlicha ifodalangan bo‘lishi mumkin, shuning uchun disleksiya bilan bog‘liq muammolarni aniqlash va ularga to‘g‘ri yordam ko‘rsatish juda muhimdir. Logopedik-korreksiya ishlari disleksik o‘quvchilarni qo‘llab-quvvatlashda muhim ro‘l o‘ynaydi. Ushbu jarayon o‘quvchilarga

- O‘qish ko‘nikmalarni rivojlantirishga
- Yozish ko‘nikmalarni rivojlantirishga
- Fonemik va fonetik tafakkurni kuchaytirishga
- Talaffuz va grammatik qoidalarni yaxshilashga yordam beradi.

O‘qish qobiliyatlarining rivojlanishi, shaxs sifatlarining rivojlanishining ajralmas qismi bo‘lib, o‘qish faoliyatini shakllantirishga hissa qo‘shadi. Nazariy ma’lumotlarga asoslanib, biz o‘qish kompetensiyasining asosini tashkil etuvchi uchta asosiy kompetensiyani ajratdik:

- Kommunikativ;
- Ijtimoiylik;
- Kognitiv.

Ijtimoiylik kompetensiya o‘quvchining dunyoqarashiga ega bo‘lishi bilan belgilanadi.

Kommunikativ kompetensiya o‘qishning asosiy usullariga asoslanadi, ular o‘qishning samaradorligi va sifatini belgilaydi.

Kognitiv kompetensiya o‘quvchilarning o‘qish qobiliyatlari va ulardan samarali foydalanish, o‘z bilimlarini amaliyotda qo‘llay olish qobiliyatini anglatadi.

Aniq ko‘nikmalar o‘qish kompetensiyasini shakllantirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. G. M. Petrova tomonidan ishlab chiqilgan dars dasturiga asoslanib, o‘qish qobiliyatlarini shakllantirish bo‘yicha logopedik-korreksion ishlarning asosiy parametrlari belgilanadi:

- Suhbat;
- O‘qishning interfaol usullari ;
- Dars turiga qarab o‘qish faoliyatini maqsadga muvofiq tanlash.

O‘qish darslarida o‘qitish usullari va bu usullarni o‘zgartirish dars mazmunini belgilaydi va o‘quvchilarda ijobiy kayfiyatni shakllantiradi. O‘qish usullari va bu usullarning o‘zgarishi darsga, matnga qiziqishni qo‘llab-quvvatlaydi, o‘qish usuli bo‘yicha o‘yinli va qiziqarli topshiriqlar darsning emotsional muhitini yaratadi va boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘qish jarayonini sevishga o‘rgatadi .

O‘qish darslarida hamda logopedik-korreksion darslar davomida fonetik-fonemik tahlil disleksik o‘quvchilar uchun juda muhim hisoblanadi.

Fonetika – bu tovushlar bilan ishlashni o‘rganish, fonemik tahlil esa tovushlar va harflar o‘rtasidagi bog‘lanishni tushunishga yordam beradi. Disleksik o‘quvchilarda tovushlarni ajratish va ularni to‘g‘ri o‘qish qiyin bo‘lishi mumkin. Shuning uchun, fonemik mashqlarni muntazam ravishda bajarish o‘quvchilarning o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirishda yordam beradi. Vizual va audial yondashuvlar disleksik o‘quvchilarning o‘qish qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Vizual mashqlar orqali o‘quvchilar tovushlarni, harflarni va so‘zlarni vizual ravishda ko‘rib, to‘g‘ri ajratish va o‘qish bo‘yicha ko‘nikmalarni rivojlantiradilar.

XULOSA. Audial mashqlar esa tovushlarni eshitish va ularni to‘g‘ri ajratish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Bu yondashuvlar o‘quvchilarning o‘qish va yozishdagi qiyinchiliklarini bartaraf etishga yordam beradi. Yozma mashqlar disleksik o‘quvchilarning yozish qobiliyatlarini rivojlantirishda yordam beradi. Bu mashqlar yordamida o‘quvchilar harflarni va so‘zlarni to‘g‘ri yozishni, ularning tuzilishini tushunishni o‘rganadilar. Logopedik yordam disleksik o‘quvchilarga o‘qish va yozishdagi muammolarni bartaraf etishda yordam beradi va ularning akademik muvaffaqiyatini oshiradi. O‘quvchilarga to‘g‘ri yordam ko‘rsatish, ular o‘zlarining qobiliyatlarini rivojlantirishda muvaffaqiyatga erishadilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Shapiro, K. (2017). The Impact of Dyslexia on Academic Performance: A Logopedic Perspective. Educational Psychology Review.
2. Johnson, A. (2019). Teaching Strategies for Children with Dyslexia. Springer International.
3. Vasyanova, M. (2020). Logopedik Tuzatuv Ishlari va Ularning Samaradorligi. Tashkent Publishing.
4. Smith, D. (2018). Speech Therapy and Reading Strategies for Children with Dyslexia. Journal of Child Development.
5. Akhmedova, N. (2021). Disleksiya: Boshlang‘ich Ta’limda Pedagogik Yondashuvlar. Pedagogika va Psixologiya Jurnal
6. Забродина Наталья Андреевна. Формирование читательской компетенции у младших школьников с тяжелыми нарушениями речи на уроках литературного чтения. Выпускная квалификационная работа Специальное (дефектологическое) образование Магистерская программа «Логопедия»